



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No 23
25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 30 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Abdusattorova Dildora Adhamjonovna

TARIX FANINNG BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA BOBOLARIMIZNING
TARIX FANIDAGI ASARLARI 7

2. Fayzullayev Aziz Husan o‘g‘li

AFG‘ONISTONNING XALQ KENGASHLARI (“LOYA JIRG‘A”) TARIX
SAHIFALARIDA 8

3. Нодиржонов Элмурод Дилмурод ўғли

XIX ACP ОХИРИ - XX ACP БОШЛАРИДА ТОШКЕНТ ЯҲУДИЙ
ЖАМОАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МАДАНИЙ ҲАЁТИ 11

4. Боймуродова Тулғаной Абсамат қизи, Жўраева Сохиба Соатмурот қизи,

Тошпўлатова Маржона Ғайрат қизи

“АВЕСТО” Да ТУПРОҚ ҲАҚИДА ФИКРЛАРНИНГ ТАЛҚИН ҚИЛИНИШИ 13

5. Ma’rupova Nigora Nutiddinova

ILK SIVILIZASIYANING PAYDO BO‘LISHI 15

6. Yusupova Mahliyo Esanovna

AKBARSHOHNING DAVLAT SIYOSATI HAQIDA 17

7. Madiyarova Shirmonoy Yursunovna

TARIX FANINI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR 19

8. O‘razaliyeva Munavvar Suyunbayevna

TARIX DARSLARIDA PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH 22

9. Алижонова Шоҳиста Алижоновна

ДЕМОКРАТИК ЖАМИЯТДА ЁШЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИГИ
МАСАЛАЛАРИ 23

10. Йўлдашали Исаков Валиевич

ХУДОЁРХОН ДАВРИНИНГ ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ 24

11. G‘aniyev Mo‘minjon,

MAKTABLARDA TARIX FANLARINI TASHKILLASH JARAYONIDA
O‘QUVCHILARNING RIVOJLANISHI VA KAMOL TOPISHI 26

12. Nazarova Aziza Akmalovna,

TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVURLAR VA TUSHUNCHALARNI
SHAKLLANTIRISH 28



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

TARIX FANINNG BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA BOBOLARIMIZNING TARIX FANIDAGI ASARLARI

*Abdusattorova Dildora Adhamjonovna
Farg'ona viloyati Oltiariq tumani
31-maktab o'qituvchisi*

Annotatsiya; ushbu maqolada tarix fanining bugungi kundagi ahamiyati, tarix fanida yozilgan bobolarimizning asarlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar; tarix, o'tmish, arxeologik, madaniy yodgorlik.

Tarix - o'tmish voqealar haqida axborot ochish , yig'ish, tartiblashtirish va namoyon etish bilan birga shug'ullanuvchi fan. Tarix bilan shug'ullanuvchi olimlar tarixchilar , deb ataladi. Tarix fani voqealar ketma - ketligini tahlil etadi va ularning sabab va samaralarini tizimlashtiradi. Tarix fani-insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqeа - hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivoji) yaxlit bir tarzda о'rrganad. Hozirgi zamon tarix fani alohida bo'limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuidir. Ixtisoslashish darajasiga ko'ra, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni jamiyatning (jamiyatning jahon tarixi) butun va alohida tomonlarini о'rGANUVCHI bo'lim va sohalar tashkil qiladi. Insoniyat tarixining ayrim hodisalari alohida о'rGANILADI. Jahon tarixi ibtidoiy jamiyat tarixi, o'rta asrlar tarixi , yangi va eng yangi tarixga bo'linadi. Tarix fanining tarixini tarixshunoslik fani о'rGANADI. Tarix fani asrlar davomida qо'lyozma asarlarda ifodalangan maishiy hayot, voqeа -hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy bayonchilikdan, muayyan tarixiy kontekstda tarixiy hayot yo'lining shakllanishi, bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yo'lni bosib o'tdi. O'zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniyat yodgorligi va arxeologik topilmalar ma'lumot beradi. Milloddan avvalgi 1- mingyllikka oid yozma manbalar, zardushtiyarning muqaddas Avesto kitobida , ahamoniylar davri manbalarida (Behistun,Naqshi Rustam va boshqalar) Turon va Movorounnahrning tabiatи, xalqlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekistonning qadimgi tarixi haqida Geredot, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, shuningdek, xitoy, arman, arab mualiflari yaratgan yozma manbalarda ma'lumotlarni uchratish mumkin. Asrlar davomida O'zbekiston siyosiy , iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy xayoti tarixi haqidagi ma'lumotlar saroy - yilnomachilari, tarixchilar, xonlar, podshohlar tomonidan yozilgan qо'lyozma manbalar shakllana bordi. O'rta asrlar tarixnavisligida sulolaviy tarixga bag'ishlangan. Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiy ", Nasaviyning "Siyrat as- Sulton Jalol ad-Din Mankburni ", Nizomiddinning "Zafarnoma" Sharafiddin Al Yazdiyning " Zafarnoma ", Hofiz Tanish Buhoriyning " Abdullanoma" Hofiz Tanish al Buhoriyning "Abdullanoma" Muhammad Amin Buhoriyning "Ubaydullanoma" kabi asarlari yaratildi. Bu qо'lyozma asarlар o'z davrining ilg'or fikrli kishilari tomonidan yozilgan bo'lsa-da, o'sha davrdagi hukmdorlar ra'yidan o'tolmasdan, ularning manfaatlariga moye qilib yozilganligini,o'z davri va muhiti, zamonasi tartiblari, taraqqiyot darajasi tafakkurining xos ko'rinishlari ta'sirini namoyon qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirliliklar Mahkamasining " O'zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish"haqidagi 1998y iyul qarori tarix fanining vazifalarini strategik jihatdan o'zgartirdi.Tarix instituti respublikada tarix tadqiqotlarini muvofiqlashtiruvchi chinakam markaz mgomiga ko'tarildi. "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" konsepsiysi ishlab chiqildi. Mustaqillik davrida "O'zbekiston tarixi" jurnaliga asos solindi. O'zbekiston Respublikasi tarixchilar jamiyatı tuzildi. Bu esa yurtimizda har bir sohaga bo'lgan e'tiborning namunasi hisoblanadi. Zero, tarix-xalqimiz ma'naviyatining asosidir.



AFG'ONISTONNING XALQ KENGASHLARI ("LOYA JIRG'A") TARIX SAHIFALARIDA

*Fayzullayev Aziz Husan o'g'li
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 2-kurs magistranti
Tel: (90) 967-92-11*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jirg'a institutining faoliyatiga nazar tashlanadi, uning asosiy shakllari va har bir shakli Afg'onistonda mojarolarni hal qiluvchi mexanizmi sifatida faoliyati va turli ijtimoiy farqliliklar haqida gap boradi. Jirg'a an'anaviy afg'on instituti sifatida Afg'onistondagi har kungi hayotning ijtimoiy va iqtisodiy voqeliklari bilan chambarchas bog'lanib, mamlakat xalqi madaniyati va tarixida chuqur ildiz otgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: jirg'a, Loya jirg'a, Volusi jirg'a, Afg'oniston, Omanullahon, Sud (darbar), Kengash, Parlament

Jirg'a Afg'oniston davlatida o'zining ko'p asrlik tarixi va o'chmas o'rniga ega. Bu so'z Push-tun qabilasida (Pashto: جرګ)¹ eng muhim masalalarga bag'ishlangan qabilaning nufuzli a'zolaridan iborat bo'ladigan davriy organ hisoblangan. Qadimdan va bugungi kunda ham Jirg'a vaqli muassasa sifatida nafaqat ko'plab mahalliy, qabilaviy va milliy nizolarni samarali va iqtisodiy jihatdan hal qiladi, balki Afg'oniston xalqi orasida kuchli aloqa kanali sifatida ham ishlaydi. Biroq mojarolarni hal etish mexanizmi sifatida jirg'aning samaradorligi afg'on aholisining turli qatlamlari tomonidan qay darajada qonuniy deb qabul qilinishiga bog'liq. Urushdan keyingi Afg'onistonda ko'plab zamonaviy mahalliy, qabilaviy va milliy mojarolarni hal qilishda Jirg'a uchun davomiy ehtiyoj borligi saqlanib qolmoqda. Lekin, shu bilan birga, bu an'anaviy Afg'oniston muassasalarining yangi global madaniy ish faoliyatiga moslashishi kerakligini ko'rsatmoqda.

"Jirga" atamasining kelib chiqishi ma'lum bir qabila kengashing ichki va tashqi nizolarni hal qilishini bildirsada, u qabila ildizlaridan ajralib chiqqan va yanada keng qamrovli tushunchaga aylangan. Yaqin vaqt ichida bu atama fuqarolik jamiyati atamashunosligiga va Afg'oniston siyosiy tizimi (Volesi Jirga yoki quyi uy)ga kirdi. 1930-yillarda Afg'on ziyolisi va siyosatchisi Muhammad Gul Xon Mahmud o'z lug'atida bu noaniqlikka murojaat qilgan edi va "Loya Jirga" uyushmalarini qabila kengashi ma'nosidagi "jirga" dan ko'ra "kunferans" (konferensiya) deb ta'riflashni tavsiya qilgandi. Uning "Loya Jirga" o'rniga yevropacha atamani tanlashi ushbu yig'lishlar qabilaviy madaniyat bilan eams, balki Afg'onistondagi modernizatsiya jarayoni bilan bog'liq bo'lishi kerakligiga urg'u beradi va shuning uchun Loya Jirga yig'inlarini qabila madaniyating asosiy g'oyalari kiritilgan loyiha sifatida ko'rsatmoqda.

Loya Jirga, bugunga qadar asrlardan buyon mavjud bo'lgan muassasa sifatida, salkam yuz yil avval qirol Omanullaxon (1919-29) tomonidan davlat organi sifatida ishlatilgan. U ilk bor yig'lishni 1923-yilda markaziy-siyosiy kengash sifatida o'tkazgan. Unga bunday favqulodda yig'lish o'tkazish g'oyasi uzoq vaqtidan beri sud (darbar) shaklida kengash chaqirib kelayotgan ajdodlaridan o'tgan edi. Yana bir konstitutsiyaviy organ sifatida, uning xalq kengashlari (Loya Jirga) qabila siyosiy madaniyatining elementlari bilan bir qatorda Afg'on sudlaridagi G'arbiy parlamentarizmning zamonaviy va taniqli ideallarini kiritishi kerak edi. Omanullo bu kabi har birida mingdan ziyod vakillar qatnashgan yig'lnlarni 3 marta 1923, 1924 hamda 1928-yillarda chaqirdi. Uning islohoti natijalari asosi sud tizimini qayta qurishga, hamda fuqarolik va jinoyat qonunini shifrlashga va davlat boshqaruv tizmini isloh qilishga asoslangan birinchi Afg'on konstitutsiyini qabul qilinishi edi. Loya Jirgalar (Xalq kengashlari) qirolning xalq vakillari bilan nizolarni yuzmz-yuz xal qilish uchun asosiy vositaga aylandi. Shunga ko'ra, ularning asosiy xususiyati ishtirokchilar bilan mulaqot yo'lida edi, bir tomonidan davlat vakillari, yana boshqa tomonidan xalq vakillari o'z shaxsiy fikrlarini aytishga va hatto o'ta muhim siyosiy masalalarda qatnashishga birinchi marta o'z hukmdorlari tomonidan ruhlantirilayotgan edi. Ammo u tanqidlardan holi bo'lmagan, 1924-yilgi loya jirgada bir guruhi konservativ vakillar uni yangi jinoyat kodeksini shariatga to'g'ri kelmasligida ayplashdi va bu qonunni bekor qilishga majburlashdi. 1929-yilda taxtdan voz kechgan Omanullo qisqa vaqt ichida Afg'onistonda o'zining zamonaviy g'oyalarini amalga oshirolmagan bo'lsada,

¹ <http://www.jirga.gov.af>



uning loya jirgani o‘z ichiga olgan islohoti yashab qoldi va bugungi kunga qadar Afg‘onistonning siyosiy madaniyatiga yuqori ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Qirol Nadir Shoh(1929-33) va uning o‘gli Muhammad Zahir Shoh(1933-73) hukmronligi davrida loya jirg‘adan vaqt vaqt bilangina foydalanib turildi. 40 yil davomida 4 marta chaqirilgan yig‘ilishning har biri turli ko‘rinishda, 500 tadan 2000 tagacha vakillar va turli xil kun tartibini ko‘rgan holda o‘tkazildi. 1930-yilda Nadir Shoh loya jirg‘adan Omanulloning ba’zi islohotlarini bekor qilishda foydalandi. Shunga qaramasdan “uning” yangi konsitutsiyasi parlament tomonidan bir yildan so‘ng qabul qilindi.

1941-yilda hukumat tomonidan loya Jirga Britaniya bosmi ostida bo‘lgan German va Italian fuqarolarini quvib chiqarishda ko‘mak yig‘ish uchun chaqirildi. 1955-yildagi loya Jirga ham hukumatning chet el siyosati ya’ni yangi tuzilgan Pokiston davlati bilan Afg‘oniston chegaralari haqida edi. 1964-yilda Afg‘on monarxi tomonidan chaqirilgan konstitutsiyaviy Loya Jirga oxirgisi bo‘lib, eski yig‘inlarga solishtirilganda zamonaviy demokratik g‘oyalar va uslubi bilan bog‘liq edi. Bu Loya Jirga O‘rta Sharqdagi Afg‘onistonda konsitutsiyaviy monarxiya tizimini birlashtirgan va siyosiy tizimda saylangan vakillik organlarning rolini kuchaytirgan eng yaxshi konsitutsiyalardan birini qabul qildi.

Loya Jirga tarixida birinchi institutsional burilish 1964-yilda, uning konstitutsiyaviy organga aylanganidan so‘ng sodir bo‘ldi. Shu vaqtga qadar Loya Jirga va uning siyosiy tizmdagi rolida hech qanday rasmiy-huquqiy matni yo‘q bo‘lib, har bir kengasho‘z rejasi, tartibi va uslubiga ega bo‘lgan holda, hokimlik darajasida ishlab chiqilgan. 1964-yildan buyon Loya Jirg‘a doimiy organga aylanmadni, ammo yangi konstitutsiya belgilashi kerak bo‘lgan vaziyatlarda, mavjud vakillik konstitutsion organlaridan, ya’ni parlamentning ikki palatasi va viloyat kengashlari a’zolaridan iborat bo‘lgan yuqori muassasa(institut) bo‘lib qoldi. Shu tarzda, u hozirgi mavjud konstitutsiya ostidagi Loya Jirg‘aga nihoyatda o‘xshar edi. Ushbu talqin orqali Loya Jirg‘a o‘zining ba’zi xususiyatlarini yo‘qotdi(masalan ba’zi vakolatlar va tarkibini), shu bois “zamonaviy” vakillik organiga aylandi. Shunga qaramay, ajablanarlisi, ushbu davrda Loya Jirga afsonalari (mifogizatsiyasi) uchun zamin yaratildi. Yozma manbalarda va nutqlarda, ular hali ham amalda bo‘lgan va bu muassasa(institut)ni ham mahalliy-siyosiy madaniytga asoslangan ham asrlardan buyon mavjud, qadimiy-milliy tarixga bog‘lab ta’riflaydigan ayrim dalillar yaratildi. Afg‘on millatining asos solingen afsonasi, 1747-yilda Loya Jirga tomonidan toj kiydirilgan Ahmad Shoh Durroni Loya Jirganing qayta yozilgan tarixining yaqqol na’munasidir¹. Shunday qilib 1970-yillarning oxiriga qadar Loya Jirga nafaqat “zomonaviy”ko‘rinishdagi konstitutsiyaviy organga, balki tarixchi Erik Hobsvan ataganidek “kashf qilingan ana’naga” ham aylandi². 1978 yildan so‘nf Afg‘on marksistlari eski ijtimoiy va siyosiy tuzumni yengib chiqishga diqqatini qaratishdi. Lekin butun mamlakat bo‘ylab vujudga kelgan qarshilikka javoban, partiya rahbariyati Afg‘onistonning madaniy ana’nalarini tan olmay turib siyosiy qonuniylikka erisha olmasliklarini tushunishdi. Babrak Karmal va keyinchalik Najibulloh Loya Jirg‘alarga o‘zlar uzoqlashib ketgan Afg‘on jamiyatiga ularni qaytarib olib kiruvchi yo‘l sifatida qaray boshlashdi. 1985 va 1990-yillar oraliq‘ida ular 4 ta Loya Jirga bilan bir qatorda quasi-Loya Jirgalar(qabilalarning yuqori Jirgalari kabi)ni chaqirishdi; har bir yig‘ilish o‘zining tarkibi va uslubi bilan ajralib turganligi bois, eski konstitutsiyaviy talablarga e’tibor bermadi. Bunday ajoyib tashkil qilingan yig‘lishlar deyarli faqat partiya a’zolaridan iborat bo‘lib, ular nafaqat yangi konstitusiyani qabul qilish, yangi prezidentni saylash va umumiyligi siyosatini qonuniylashtirishda rezina tamg‘alari sifatida xizmat qilishdi, balki siyosiy rahbariyat Afg‘oniston siyosiy madaniyatiga sodiqligining timsoli ham bo‘lishdi.

Ziyolilar Afg‘on jamiyatidagi roli va Loya Jirga tarixida ko‘plab adabiyotlar ishlab chiquvchi sifatida bunda asosiy rolni o‘ynadilar. Shu bilan bir vaqtida Loya Jirga talqini bo‘yicha hukumat yoki qarshilik harakati(1980-1981-yillarda Pokiston surgunida ikki marta quasi-Loya Jirgani chaqirgan) yurisdiksiyaga ega bo‘lishi kerakmi degan savvolar oldida mafkuraviy kurash yotadi. 2001-yildan keyin, Afg‘onlar va xalqaro hamjamiyat Tolibondan keying siyosiy jarayonga qonuniylik berish uchun vosita izlayotgan paytda bu masala yana bir marta qayta ochildi. O‘sha davrning og‘ir vaziyatlari bilan o‘lchaganda, 2002-2003 yillarda chaqirilgan va o‘sha vaqtning siyosiy va ijtimoiy ehtiyojlariga ko‘ra tashkil qilingan ikkita Loya Jirga hech qanday savollarsiz eng yaxshi siyosiy tanlov bo‘lgan. Ular Afg‘onistonni o‘tish davri ma’muriyati va konstitutsiya

¹ <http://www.afghanistan-analysts.org>

² See Eric Hobsbawm & Terence Ranger (eds), *The Invention of Tradition*, Cambridge 1983



bilan ta'minlashda tashqari, "Afg'oniston muammolari uchun Afg'on yechimi" ma'nosini ham anglatishdi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so'ng ham, 1964-yildan buyon barcha konstitutsiyalar ostida bo'lgan Loya Jirga yangi "zamonaviy" siyosiy tartibda erishi kerak edi.

Adabiyotlar

1. <http://www.afghanistan-analysts.org>
2. See Eric Hobsbawm & Terence Ranger (eds), *The Invention of Tradition*, Cambridge 1983
3. See the official website for the traditional loya jirga and the upcoming consultative loya jirga.
4. Muhammad Gul Mohmand, [A Draft of the First Pashto Dictionary], Kabul 1937
5. Tarikh-e jirgaha-ye melli dar Afghanestan [The History of National Jirgas in Afghanistan], Kabul 1982
6. Lakhdar Brahimi, the United Nations Special Representative for Afghanistan, in his speech before the 2002 loya jirga, Institute for War and Peace Reporting



XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА ТОШКЕНТ ЯХУДИЙ ЖАМОАЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МАДАНИЙ ҲАЁТИ

Нодиржонов Элмурод Дилмурод ўғли,
эркин тадқиқотчи
Тел.: +998935589966

Аннотация: Ушбу мақоланинг асосий мақсади: архив ҳужжатлари асосида яхудий диний жамоасининг турмуш тарзини ўрганиш. Тарихийлик жиҳатдан XIX аср охири - XX аср бошларида яхудий диний жамоаларининг ижтимоий ҳаётдаги ўрни, турмуш тарзи ва ўзига ҳос ўрни. XIX аср охири - XX аср бошларида маҳаллий ва европа яхудийларнинг турмуш тарзи, турли соҳаларнинг ривожига қўшган ҳиссаларини тарихийлик жиҳатдан ёритилиши.

Калит сўзлар: Яхудий, тарих, жугут маҳалла.

Қадимдан Туркистон ўлкасининг иқтисодий ва маданий маркази бўлиб келган Тошкент шаҳрида XIX аср охири – XX аср бошларида содир бўлган кескин ўзгаришлар ўлкада мустамлака тузумининг ўрнатилиши билан боғлиқ эди. Бу даврда ўлка сиёсий марказига айланган шаҳар ҳаётида содир бўлган муҳим ва зиддиятли ўзгаришлар ижтимоий-маънавий соҳаларда ҳам яққол намоён бўлди.

Дастлабки йилларда руслар билан тўғридан-тўғри тил топиша олмаган маҳаллий аҳоли учун ҳам яхудийлар хизматидан фойдаланиш қулай эди. Шу тариқа яхудийлар ўлка иқтисодий ҳаёти ва савдо алоқаларида катта ўрин эгаллаб, йирик мулклар ва сармоя орттиридилар, завод-фабрикалар, савдо компанияларига эга бўлдилар. Яхудийлар орасида йирик сармоядорлар бўлиб, улар савдо ва саноатда жуда катта ўрин эгаллардилар. Улар ўлка хом ашёсими Россия империясига чиқаришда ва хом ашёни қайта ишлаш саноатида катта рол ўйнадилар. Айни пайтда яхудийларнинг кўпчилиги анъанавий касб-хунарларини давом эттириб, заргарлик, этикдўзлик, бўёқчилик билан шуғулланганлар.

Яхудийлар моддий маблағлар ва ҳукумат берган имкониятлардан фойдаланиб, ўз ибодатхоналари ва диний мактаблари сонини кўпайтириб бордилар. Бунда сармоядор яхудийлар ёрдами катта бўлди. Ҳатто, йирик сармоядорлар ўз оиласлари учун алоҳида ибодат уйлари ташкил қилдилар. Лекин дастлабки йилларда яхудийлар хизматидан унумли фойдаланган империя ҳукумати ўлка бозорларини эгаллаб олгач, уларни сиқувга ола бошлади. Россиядаги яхудийларга қарши кайфият Туркистонда ҳам ўз таъсирини кўрсата бошлади. Ҳукумат яхудийлар ибодатхоналарини кўпайтирмаслик учун уларни ҳисобга ва назоратга олди. Яхудийларнинг Туркистонга кўчиб келиши тўхтатилиб, уларнинг фарзандларига рус-тузем мактабларида таълим олишлари чекланди. Яхудийларнинг Тошкент шаҳрига кўчирилиши ёзма маълумотларга асосан XIX асрни биринчи ярмига тўғри келади. Ушбу вақтда Кўқон хонлиги таркибиға кирган шаҳар катта савдо марказларида бирига айланган эди. XIX асрининг ўрталарида келиб Тошкентда 27 та оиласдан иборат яхудийлар жамоаси бор эди. Булар катта ва майда савдогарлар, хунармандлар, шифокорлар, мусиқачилар ва бошқалар. Яхудий савдогарларининг бир қисми (П.Казиев, Б.Мурҳазаев, П.Абдураҳмонов ва бошқалар) Россия империяси билан ишбилармонлик алоқаларини ўрнатган эдилар. Жаноб Дауд рус савдо жамоаларининг вакили бўлган. Унинг ўғли Ю.Давидов кейинчалик Марказий Осиёнинг энг бой савдогари, ишлаб чиқарувчиси ва ер эгаси бўлган. 1865 йилда Тошкент Чор Россияси империяси томонидан қўшиб олинган. 1867 йилда Туркистон ўлкаси ва Сирдарё вилояти марказ ҳисобланган. Шаҳарни эгаллашда қатнашган ҳарбийлар орасида ашқиназий яхудийлари бор эди. Булар уч аскар ва бир гуруҳ офицерлар бўлган. Улар ҳаммалари Тошкентга ўтрок жойлашдилар. Кейинчалик уларга бошқа ҳарбий яхудийлар қўшилганлар. Ҳарбийларнинг оила аъзолари ҳам шу ерга кўчиб келганлар. Бу даврга келиб Тошкентга бухоро яхудийлари ҳам кўчиб кела бошлаганлар. 1868-йилга келиб шаҳар яхудийлари сони 200 кишига етган.

XIX асрнинг 60-йилларининг охирида Марказий Осиёдаги барча яхудийлар тожик тилида сўзлашишган ёки тожик шевасида сўзлашишган. А.И Добросмыслов ёзган манбаларга кўра, маҳаллий яхудийлар ўзларини бу ҳудудда XV асрда, яъни бундан 400 йил аввал жойлашганларини таъкидлайдилар. Улар ўзларини Бухородан деб ҳисоблашган. Тошкент яхудийлари аксарияти ипак матоларни ишлаб чиқариш ва уларни сотиш би-



лан шуғулланганлар. Маҳаллий (Қўқон) ҳокимиятидан кўчмас мулк сотиб олиш уларга таъкиқланган эди. Тошкент яхудийларининг ягона туар жойи шаҳар деворлари ташқарисида жойлашган қабристон яқинида эди. Маълумотларга қўра, бу қабристон Бешёғоч майдони ёнида жойлашган.

Тошкент босиб олинган вақтда, шаҳарда 100 га яқин яхудийлар (27 оила) яшар эди. Улар ўз руҳонийсига (раввин) эга эмас эдилар. Дарс жараёни тожик тилида ўтиладиган бир дона бошланғич мактаб (хедер) бор эди. Қассоб ва ўқитувчилар доим Бухородан олиб келинارди. Аммо Чор Россияси босиб олишидан аввал, марказий осиёлик яхудийларга империя фуқаролигига қўшиш ва савдогарлар бирлашмасига аъзо бўлиш хукуки берилган эди.

Тошкент вилоятидаги яхудий аҳоли ҳақида маълумотлар кам, баъзи бир маълумотларни XIX асрнинг 20-30 йилларда чоп этилган З.Ламитин-Шапиронинг асарларида маълумотларни ажратиб олиш мумкин. Тадқиқотлар натижасига қўра, Тошкент вилоятида истиқомат қилган яхудийлар жамоасини 2 гурӯҳга ажратиш мумкин: Марказий Осиёга Россия қўшинлари ва кўчманчилари (кантонистлар, викрестлар, голендерлар) билан бирга кириб келган яхудийлар ва қадимдан шу ерда яшаган марказий осиёлик (бухоролик) яхудийлар. Чор маъмурияти охириги категорияни 2 гурӯҳга: "маҳаллий" яхудийлар (Россия фуқаролари) ва "бухоролик" (Бухоро амири фуқаролари) яхудийларига бўлдилар. "Маҳаллий яхудийлар" термини 1886 йилда пайдо бўлган ва қонунга жорий этилган. "Маҳаллий яхудийлар"га ҳукумат изохига қўра (262-қарор "Туркистон четларини бошқариш тўғрисидаги низом" 1886 йил 12 июндан), "маҳаллий яхудийлар" номига ўзини ёки аждодлари бу ўлкаларда Россия босиб олишидан аввал яшаганликларини исботлай олсалар, маҳаллий аҳоли билан тенг ҳуқуқга эга бўлиб, кўчмас мулк сотиб олиш ҳуқуқига эга бўлар эдилар.

Тошкентда яшаган яхудийлар европача услубдаги кўплаб уйлар қуришгани манбаларда қайд этилган. Шунингдек, Марказий Осиё шаҳар ва қишлоқларида яшайдиган "бухоролик" яхудийлар гурӯҳ-гурӯҳ бўлиб яшашган, улар бир маҳалла бўлиб, одатда "жугут-маҳалла" деб номланилган. А.Хорошхин таъкидлаганидек, уларнинг манзилгоҳлари - "жугут-маҳалла" Тошкентда ҳам бўлган (маълумотларга қўра, Зарқайнай кўчаси, Себзор, Тахтапул дарвозаси яқинида).

Тошкентда бухоро яхудийлари жамоаси ҳовлиларда яшашган. Туар жойи етмаганлиги сабабли улар яшаш жойларини бузиб, 2-3 қаватли уйларни қуришган. Тошкентга кўчиб келган яхудийлар орасида тикувчилар, бош кийим тикувчилари, дурадгорлар, пўлат билан ишловчи усталар, темир йўл ишчилари, шунингдек, шифокорлар, журналистлар, фотосуратчилар, типография эгалари бор эди. 1915 йилда Тошкентнинг руслар яшайдиган қисмida ўнта типографиядан бештаси яхудийларга тегишли эди. Яхудийлар китоб дўконларининг эгалари, кутубхона ва босмахоналарни бошқаргандар.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, XIX аср охири - XX аср бошларида Тошкент шаҳрида истиқомат қилган яхудий жамоаларининг ижтимоий маданий ҳаёти турли ўзгаришларга бой бўлган. Бухоро яхудийлари маҳаллий аҳоли вакиллари билан бир қаторда шаҳар ижтимоий-маданий ҳаёти ривожланишига хисса қўшганлар. Улар орасида хунармандчиликнинг турли соҳа вакиллари билан бир қаторда муҳим касб эгалари ҳам бўлгани, ўша соҳаларнинг тараққиётида ўзига хос ўрин тутганини кўрсатди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Васильев Л.С. История религии Востока. Изд. 4. - М.; "Книжный дом "Университет", 1999;
2. Johnson P. A history of Jewish people. – N.Y, 1965.
3. Авдиев В.И. История Древнего Востока. – Ленинград: Государственное издательство политической литературы, 1948.
4. ЎзР МДА, И-18, 1-й.ж. 4535-иш
5. ЎзР МДА, И-19, 2-й.ж. 28173-иш
6. ЎзР МДА ЯЗ 1102-иш



“АВЕСТО” ДА ТУПРОҚ ҲАҚИДА ФИКРЛАРНИНГ ТАЛҚИН ҚИЛИНИШИ

*Боймуродова Тулғаной Абсамат қизи
Термиз давлат университети. Табиий фанлар факультети
тупроқшунослик таълим йўналиши 2- курс талабаси.*

*Телефон:+99893-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru*

*Жўраева Соҳиба Соатмурот қизи
Термиз давлат университети. Табиий фанлар факультети
тупроқшунослик таълим йўналиши 1- курс талабаси.*

*Телефон:+99893-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru*

*Тошпўлатова Маржона Гайрат қизи
Термиз давлат университети. Табиий фанлар факультети
тупроқшунослик таълим йўналиши 1- курс талабаси.*

*Телефон:+99893-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru*

Аннотация. Мақолада қадимги аждодларимиз яратган «Авесто» табиатни эъзозлаш, унинг жамиики бойликларидан, шу жумладан ердан оқилона фойдаланиш, унинг нес-нобуд бўлишига йўл қўймаслик ҳақида умумбашарий аҳамиятга эга бўлган меърос қолдирди деб алоҳида тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: тупроқ, маҳаллий ўғитлар, она-замин- ерни, маҳаллий ўғитлар агротехник ва мелиоратив тадбирлар.

Тупроқшунослик фан сифатида унча катта тарихга эга бўлмасада тупроқ ҳақидаги дастлабки маълумотлар бундан 2-2,5 минг йиллар олдин юзага келган. Қадимги Хитой ва Миср, Хиндистон ва Вавилон, Арманистон, Ўрта Осиё ва ассуриялик олимлар, файласуфларнинг асарларида учрайди. Ўша даврлардаёқ инсонлар ерга солинадиган маҳаллий ўғитлар (гўнг, ҳожатхона ахлати, турли чиқиндилар, оҳак) ва шунингдек дуккакли, бошоқли экинлар, экинлар ҳосилдорлигини оширишнинг муҳим омили эканлигини тажрибадан билганлар. Айниқса эрамизгача В-1В асрларда тупроқ ҳақидаги билимлар Юнонистонда анча ривожланган. Қадимги юонон олимлари ва файласуфлари Аристотель (Арасту) ва Теофраст асарларида тупроқ ҳақидаги диалектик қарашлар ва ғоялар асосий ўринни эгаллайди. Аристотельнинг шогирди Теофраст (эрамизгача 372-287) нинг «ўсимликлар ҳақида тадқиқотлар» асарида тупроқ хоссаларини ўсимликларнинг талаби асосида ўрганиш ғояси олдинга сурилади. Унда тупроқ унумдорлигига кўра ўсимликларнинг турлари ва навларини танлаш, тупроқка ишлов бериш усуслари ҳақида кўплаб илғор фикрлар айтилган [1].

Ҳозир Ўзбекистон деб аталувчи худудда, яъни бизнинг ватанимизда, яна ҳам аниқроғи, гўзал диёrimизнинг ажralmas бир қисми, илм-фан, маданият ва маънавиятнинг қадимий бешикларидан хисобланган Хоразмда «Авесто» дек мўътабар китоб яратилган. «Энг мўътабар, қадимий қўллэзмамиз «Авесто» нинг яратилганига 3000 йил бўляяпти,- дейди мамлакатимиз йўлбошчиси тарихчи олимлар билан учрашувда. – Бу нодир китоб бундан XXX аср муқаддам икки дарё оралиғида мана шу заминда умргузаронлик қилган аждодларимизнинг биз авлодларига қолдирган маънавий, тарихий меъросидир. «Авесто» айни замонда бу қадим ўлқада буюк давлат, буюк маънавият бўлганидан гувоҳлик берувчи тарихий хужжатдирки, уни ҳеч ким инкор этолмайди» [2].

«Авесто» диний ва дунёвий илмларнинг асослари Шарқда, Турон заминда яратилгани, сайқал топганидан, бу қадимий ва табаррук тупрокда эрамизгача дехкончилик, хунармандчилик, чорвачилик, боғдорчилик маданияти юксак бўлганидан далолат беради.

Бизнингча, деб ёзади Т.Мирзаев ва З.Фофуровлар «Табиатни эъзозлаш умумбашарий муммом» (Тошкент, 2001 йил, «Янги аср авлоди » нашрёти) номли китобида, Ер- Она замин, барча диний ва дунёвий таълимотларда бўлганидек, «Авесто» да ҳам улуғланган. Мазкур китобнинг Она-замин мадҳ этилмаган биронта ҳам фаргарди, бўлими ёки банди йўқ, десак муболага бўлмайди.



Зардуштийлик китобида инсоният тириклиги ва яшашининг асоси Ерни эъзозловчи, уни Аллоҳнинг буюк неъмати тариқасида покиза сақлашга, авайлаб асрashга даъват этувчи ғоялар, қимматли фикрлар ва йўл-йўриклар беҳисоб.

«Авесто» да ҳикоя қилинишича, кимки ғалла- буғдой экса, у ҳақиқатни эккан бўлади, эзгуликка йўл очади. Ерга буғдой уруғини экиб, мўл ҳосил етиштирган кишининг меҳнати юксак даражада кадрлидир.

Аждодларимиз неча-неча асрлар мобайнida она-замин- ерни, унинг ҳар бир сиқим тупроғини зўр муҳаббат билан эъзозлашни, уни нопок бўлишдан асрashни энг эзгу, энг улуғ инсоний фазилат деб ҳисоблаганлар. Ерни севиш ҳақидаги дунёвий аҳамиятга молик қоидалар «Авесто» да кўплаб топилади.

Инсон ризқ- рўзининг асосий манбаи бўлган Ернинг нопок бўлишига аждодларимиз ҳеч қачон йўл қўйишишмаган. Ерга вақтида ишлов бермаган, она- заминни эҳтиромла эъзозлашмаган кишилар умумхалқ эътирофидаги ахлоқий қоидалар бўйича гуноҳкор ҳисобланган, қонун бўйича жазоланган.

Бобоколонларимиз борлиқ табиатни севиш, уни асрash, чиройига чирой қўшиш, ён-атрофни кўкаламзорлаштириш, боғ-роғларга айлантиришни эзгулик, она-ерни севиш, ардоқлаш деб тушунгандар.

Хулоса қилиб айтганда, қадимги аждодларимиз яратган «Авесто» табиатни эъзозлаш, унинг жамиики бойликларидан, шу жумладан ердан оқилона фойдаланиш, унинг нес-нобуд бўлишига йўл қўймаслик ҳақида умумбашарий аҳамиятга эга бўлган меърос қолдирди. «Авесто» таълимоти ҳозирги давр ва келгуси авлодлар учун ҳам муҳим йўл-йўриқ, дастуриламалдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. И.Бобоҳўжаев. П.Узоқов. «Тупроқшунослик» Тошкент. «Меҳнат» -1995.
2. Бобоҳўжаев И. Тупроқ бебаҳо бойлик. Т.Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. № 12. 1990.



ILK SIVILIZASIYANING PAYDO BO‘LISHI

*Ma’rupova Nigora Nutiddinova
Namangan viloyati Uychi tuman
35-maktab tarih fani o‘qituvchisi
+998934937527
ma’ripovanigora@gmail.com*

Annottatsiya: Ushbu maqolada ilk sivilizasiya ni paydo bo‘lishi va insonlarda dunyoqashlarini o‘sishiyoritilgan. Sivilizasiyani rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib kelgan, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta’minalash 6 imkoniyatini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sivilizasiya, ma’rifat, madaniyat, qadimgi, jamiyat, moddiy-texnika yutuqlar, taraqqiyot, antik, tarixiy jarayon.

Gumanitar ta’limda, XXI asr avlodlarining dunyoqarashini shakllantirishda insoniyat jamiyatining o’tmishi, buguni va kelajagini, jahon sivilizatsiyalar taqdirini qayta anglash markaziy o‘rinni egallaydi. Bu sharoitda tarixiy jarayonni formatsion yondashuv asosida talqin qilishning bir yoqlamaliligi ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ushbu talqinni tarixni tuushunishga nisbatan o‘zgacha, nochiziqli yondashuv bilan to‘ldirish talab etiladi. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonnii tushunishga nisabatan aynan shunday yondashuvdir. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonning turli-tuman ko‘rinishlari, qirralarini isobga oladi, bundan tashqari uning asosiy vazifasi inson va uning dunyoqarashi, ahloqiy va estetik qarashlarin o‘rganishdir. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsion yondashuv har bir xalq, mamlakat, mintaqqa taraqqiyotining noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi. Sivilizatsiya so‘zi insoniyat tarixidagi sifat chegarasini belgilash bilan bog‘liq. Sivilizatsiya haqidagi ilk tushunchalar ancha ilgari yuzaga kelgan. Qadimgi davrlardayoq insonlar o‘zlarining dunyolarini o‘zgalar dunyosi bilan solishtira boshlashgan. Antik davrda sivilizatsiya so‘zi bilan belgilanmasa-da, o‘z taraqqiyot darajalariga varvarlikni qarama-qarshi qo‘yganlar. Sivilizatsiya so‘zi lotinchalikka, davlatga, shaharga talluqli ma’nolarini anglatuvchi o‘zakdan kelib chiqqan. U «silvaticus», ya’ni lotinchadan tarjima qilganda qo‘pol, yovvoyi so‘ziga qarshi ma’noda qo‘llanilgan. Sivilizatsiya tushunchasi “madaniyat” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan. Dastlab madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari sinonim sifatida qo‘llanilgan, ammo bora-bora bu ikki atama o‘rtasida farq paydo bo‘ldi. Ko‘pchilik faylasuflar “sivilizatsiya” deganda jamiyatning moddiy-texnika yutuqlarini, “madaniyat” deganda esa faqat uning ma’naviy qadriyatlarini tushunishgan. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi O.Shpengler “Yevropa quyoshining so‘nishi” asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘ydi. Uning fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo‘lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz o‘giradi. Nemis faylasufi sivilizatsiya deganda texnik- mexanik jarayonlar majmuuni nazarda tutgan. Madaniyatning paydo bo‘lishi insoniyatning yovvoyilikdan keyingi davri bilan bog‘liq bo‘lsa, sivilizatsiya - tarixiy jarayon, ijtimoiy hodisadir. Sivilizatsiyaning rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib keladi, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta’minalash 6 imkoniyatini yaratadi. Sivilizatsiyali hayot insonni madaniyatli qiladi va uning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoit yaratadi. Sivilizatsiya kategoriyasining serqirraligi va ko‘p serma’noligi tufayli unga aniq ta’rif berish mushkul. “Sivilizatsiya” ning yuzdan ortiq ta’riflari mavjud bo‘lib, har bir o‘ziga xos ta’rifida ijtimoiy hayotning ma’lum tomonlari, jihatlariga alohida urg‘u beriladi, bu umuman sivilizatsiyaning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini to‘laroq anglab etishga xizmat qiladi.

Sivilizatsiya umumjahon tarixiy jarayonining ijtimoiylikning ma’lum darajasiga erishish bilan bog‘liq bosqichini ham anglatadi. Sivilizatsiyaning yana bir ma’nosи - madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tipi. Sivilizatsiya madaniyat so‘zining sinonimi sifatida, ko‘pincha moddiy madaniyat ma’nosida ham qo‘llaniladi.

Hulosa qilib aytganda Sivilizatsiya (lot. *civilis*) -fuqarolikka, davlatga taalluqli), tamaddun—1) keng ma’noda — ongli mavjudotlar mavjudligining har qanday shakli; 2)madaniyat so‘zining sinonimi. Bu termin ko‘pincha moddiy madaniyat ma’nosida ham qo‘llaniladi; 3) madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tipi b.); 4) yovvoyilik va vahshiyilikdan keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi. «Ts.» tushunchasi 18-asrda «madaniyat» tushunchasi b-n uzviy bog‘liq



ravihda paydo bo‘lgan. Fransuz faylasuf ma’rifatparvarlari akl va adolatga asoslangan jamiyatni Ts.lashgan jamiyat deb bilganlar. Ko‘pchilik faylasuflar «Ts.» deganda jamiyatning moddiy- texnika yutuqlarini, «madaniyat» deganda esa faqat uning ma’naviy qadriyatlarini tushunishgan. Ulardan ayrimlari bu tushunchalarni birbiriga qarama-qarshi qo‘yanlar. Chunonchi, O. Shpengler fikricha, «Sivilizatsiya» har qanday madaniyat taraqqiyotining muayyan tugal bosqichini bildiradi. Sivilizatsiyani bunday davr tanazzuli sifatida tushunish madaniyatning bir butunligi va tabiiyligiga ziddir.

Foydalanigan adabiyotlar

1. “Jahon sivilizasiyalar tarihi” uslubiy qo‘llanma. Qodirova L. B. Guliston-2015
2. “Tarihdan hikoyalari” Umumiy o‘rtalim maktablarining 5-sinf darsligi. U.Jo‘rayev,Q. Usmonov, A. Nurqulov,G.Jo‘rayeva Toshkent-2020
3. <https://sites.google.com/site/civilizacium/home/civilizacium/russkaa-civilicia>



AKBARSHOHNING DAVLAT SIYOSATI HAQIDA

*Yusupova Mahliyo Esanovna.
Buxoro shahar 35-umumiy
o'rta ta'lim maktabi tarix fani
o'qituvchisi.
muhammadmahmudovich@mail.ru
Telefon: 998 (91) 4075811*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburiy shahzodalar silsilasida alohida ehtirom ila hurmatga sazovor bo'lgan, tarixda "Buyuk Akbar" nomi bilan mashhur Jaloliddin Muhammad Akbarshoh haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: silsila, siyosat, mutaassib, shia, lashkarboshi, prinsip, jizya, Sanskrit, islohot, mazhab, irq, farmon, elchi.

*Shoirlar davrasida Shekspir qanday mavqeda tur-
sa, dunyo shohlari ichida men uchun Akbarshoh
ana shunday mavqeda turadi.
Uilyam Sliman*

Jaloliddin Muhammad Akbar bin Xumoyun bin Bobur Temuriy 949h. – 1542 yil fevral oyida dunyoga keladi. 1556 yil Akbar Mirzo taxtga chiqadi, lekin hali yoshligi sababli Bayramxon sultanat ishlarini olib borishda unga maslahatchi va yordamchi qilib tayinlanadi. Bayramxon juda kuchli lashkarboshi bo'lib, mamlakat ichidagi voqealarni oldindan ko'ra bilgan. Ilgari otasiga xizmat qilgan bo'lsa, endi o'g'lining mulkularini mustahkamlashga katta yordam bera boshladi. U tufayli katta boyliklar to'plandi, hamma norozilik harakatlari bostirildi.

Bu paytda siyosiy ahvol juda murakkab edi. Akbarning oldida ana shunday qiyinchiliklarni yengishdek og'ir vazifa turar edi. Akbarshoh 1560 yilda balog'at yoshiga yetadi, u o'z yoshidagi podsho bolalari singari ilmu fanlardan bahramand bo'lishga ulgurmagan bo'lsada, lekin aqli, hayotni bilishi bilan ajralib turardi. Bayramxon unga ham ustoz, ham lashkarboshi, ham o'rnbosar bo'ldi, ammo Bayramxon mutaassib, shialik edi.

Hindistonni idora etishda Akbarshoh yangi bir siyosat qo'lladiki, ilgari birorta hukmdor bunday yo'l tutmagan edi. Uning siyosati Hindiston hindlarniki prinsipiqa asoslangan edi. U boshqaruvni insoniylik tamoyillari asosida olib bordi, odamlarni millati, diniga ajratmadи. Akbarshoh xalqni azoblayotgan "jizya" solig'idan ozod qildi. Mahalliy xalq vakillari quyidan tortib, toki yuqorigacha bo'lgan davlat ishlarida ishtirok etishdi. Soliq to'lashda musulmonlar va hindlar o'rtasidagi har qanday farqni yo'q qildi. Shikoyat qiluvchilar uchun maxsus joy tayinladi, har bir kimsa o'z dardini shu yerga kelib aytardi. Shuningdek dehqonlarning yerlarini ularga mulk sifatida belgilab, ilgarigi qarzlaridan voz kichadi. Balog'at yoshiga yetmasdan turmush qurishni man etdi, beva qolgan ayollarga turmush qurishga ruxsat berdi. Hind olimlarini Sanskrit tilini o'rganishga rag'batlantirdi.

Ana shunday ulkan imperiyani boshqarish tizimini ishlab chiqish, uni amalga tatbiq etilishi, mamlakat uzra bir xil ma'muriy va harbiy mansablar hamda soliqlar tizimini yaratilishi, shuningdek bir xil pul birligidan foydalanish tartibining o'rnatilishi va boshqaruv idoralari ish faoliyatini yagona talablar asosida nazorat qilinishining ta'minlanishi davlat boshlig'inining beqiyos aql-zakovati va kuchli iroda egasi ekanligidan dalolat beradi. Bu ulkan imperiya tarkibida yashovchi xalqlarning turmush madaniyati, urf-odatlari, dunyoqarashlari va diniy e'tiqodlari turlicha bo'libgina qolmay, ular o'rtasida hokimiyat uchun tinimsiz kurashlar bo'lib turar edi. Ularning barchasini ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va diniy e'tiqodlari asosida kelib chiqadigan talablarini qondirish va bir-biriga uzoq yillar mobaynida dushmanlik munosabatlarida bo'lib kelgan etnik va diniy guruhlarni murosaga keltirish, ularni tinchlik va osoyishtalikda yashashini ta'minlash davlat boshlig'idan juda katta qobiliyat talab qilar edi. Akbarshoh esa ana shunday noyob qobiliyat egasi bo'lgan buyuk davlat arbobi va lashkarboshi edi.

Akbarshoh hukmronligi davrida ijtimoiy hayotda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Diniy e'tiqodi, mazhabi yoki irqi asosida kamsitilib kelingan mahalliy hindlar va boshqa etnik guruhlarga o'z urf-odatlariga rioya qilish, istalgan dingga e'tiqod qilish imkoniyati yaratib berildi.



Akbarshohning buyrug'i bilan poytaxtda maxsus tarjimonlik muassasasi tashkil qilinib, unda hind tilidagi diniy kitoblarni fors tiliga tarjima qilish ishlari yo'lga qo'yildi. Xristian diniga e'tiqod qiluvchilar uchun ham 1603 yilda maxsus farmon orqali o'z diniga sig'inishiga ruxsat etildi.

Akbarshohning diniy e'tiqodiga keladigan bo'lsak, u sunniy mazhabidagi juda taqvodor musulmon bo'lib, besh mahal namozni tark etmagan va namozlarning qisqartirib o'qilishiga ham yo'l qo'ymas edi. O'zini hind xotinlarining ham o'z dini va mazhabiga sig'inishlari va urf-odatlarlariga rioya qilishlariga yoxud diniy marosimlarni o'tkazishlariga monelik qilmas edi.

Akbarshoh davrida hind, fors, turk va arab tillaridan tashkil topgan urdu tili hayotga kirib keldi. Akbarshoh o'z lashkarlariga, ularning tashkiliy masalalariga katta e'tibor bergan. Hattoki, har bir zambarakka nom berib, ularning tarixi yozib borilgan. Ingliz qirolining birinchi elchisi Tomas Runi o'z saroyida qabul qilgan.

Akbarshoh zamonida umummadaniy ko'tarinkilik kuchli bo'lgani uchun, bu zamonda kitoblar yozish nihoyatda rivoj topdi. Ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- "Akbnoma" – Akbar tarixi; bu kitobda hind tarixi Boburiy shohlarning birinchi kunidan Akbar zamonigacha yozilgan.

- "Mahabxarata" ni al-Badayuniy va al-Qazviniy fors tiliga tarjima qilishdi.

- Bag'dod, Shom o'lkasi, Misrdagi Abbosiy, Ummaviy va Roshidiy xalifalarining tarixini al-Badayuniy fors tilida yozdi.

Umuman, ilmlar sohasida shunchalik ko'p kitoblar yozilib, tarjimalar qilinganki, Akbarshohning qilgan juda keng ilmiy va madaniy harakatlari odamni hayratga soladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Boburiy shahzodalardan bo'lmish Jaloliddin Muhammad Akbarshoh tarixda "Buyuk Akbar" nomi bilan o'chmas iz qoldirdi. U juda saxovatli va bag'ri keng inson edi. Hindiston tarixida chuqur iz qoldirgan bu ulug'vor shaxs tabiatidagi bunday noyob xislatlar har birimiz uchun o'rnat bo'lgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Nuritdinov. "Boburiylar sulolasi". T.,1994;
2. G'. Sotimov. "Boburiyzodalar". T.,2003.



TARIX FANINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR

*Madiyarova Shirmonoy Yursunovna
Farg'ona shahar 14-maktabning
tarix fani o'qituvchisi
Telefon raqami: 99 758 81 71*

Annotatsiya. Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta'lif va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish davomida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi mutassil o'sib borishini, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak. Ta'lifdan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatlari ravishda amalga oshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanmog'i lozim.

Kalit so'zlar. A.Vagin, V.G.Kartsev, xronologiya, fakt, A.I.Srajev, deduktsiya, sintez, tarixiy bilimlar, tarix predmeti, ko'nikma, aktivlashtirish, g'oyaviy-siyosiy, tarbiya, ta'lif.

O'qitish metodi deganda ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida ko'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi. O'rta ta'lif va o'rta maxsus ta'lif tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ta'lif mazmunini takomillashtirish, uning tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytirish bilan birga, o'qitish metodlarini ham aktivlashtirish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Endilikda, ta'lif mazmuni insoniyat to'plagan tayyor bilimlar, ko'nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o'sishini ta'minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o'zida birlashtirmog'i lozim. Ta'lifning rivojlanish printsiplariga ko'ra, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilihga o'rgatish va ularda zarur ko'nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta'lif mazmuni bilan birga o'qitish metodlari ham muhim rol o'ynaydi. O'qitish metodlari murakkab muammo bo'lib, o'rta ta'lif va o'rta maxsus ta'lif tizimida oldiga qo'yilgan mas'uliyatli vazifalarning hal etilishi ko'p jihatdan uning to'g'ri hal qilinishiga bog'liqidir. Biroq, hozircha o'qitish metodikasining bu muhim problemasi, xususan tarix o'qitish metodlari sistemasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Metodik adabiyotda metodistlar tomonidan «Metod», «Metodik usullar» tushunchasi turlicha talqin etiladi va klassifikatsiya qilinadi. O'qitish metodikasida tarix ta'lifi metodlari tizimining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va bu sohada yagona fikr bo'lmaganligi o'rta ta'lif va o'rta maxsus ta'lif tizimida tarix o'qitish amaliyotida jiddiy kamchiliklarga olib keldi. Ko'p hollarda o'quvchilar o'qitish metodlari va usullarini tanlashda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga faqat tayyor bilim berish, ya'ni ularni o'qitish (ta'lifning bir tomonini)ni ko'zda tutib, o'quvchilarning o'rganishi (ta'lifning ikkinchi muhim tomonini)ni uyushtirish, unga rahbarlik qilish, bilish, malaka va qobiliyatlarini sistemali ravishda o'stirib borish kabi muhim momentlarni e'tibordan chetda qoldiradilar. Shuningdek, o'qitishning metod va usullarini tanlashda o'quv materialining mazmunidagi o'ziga xosliklarni, uning ta'lif-tarbiya vazifalarini, o'quvchilarning bilimi va malakalarini e'tiborga ola bilmaslik hollari ham shunday jiddiy kamchiliklar jumlasidan edi. Bu hol ma'lum darajada o'quvchilarning tarix predmetiga qiziqishlari pasayishiga, umumiyligi ta'lif-tarbiya ishlarining natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, o'rta ta'lif va o'rta maxsus ta'lif tizimida amaliyotida, ayniqsa keyingi yillarda o'quvchilarni tarix predmeti vositasida tarbiyalashda, uni o'qitishni ilmiy asosda olib borish, ta'lif-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish sohasida ko'pgina ilg'or tajribalar to'plandi va umumlashtirildi. Belgilab bergen muhim vazifa — tarixiy bilimlarning samaradorligi va sifatini oshirishning muhim sharti va vositalaridan biri bo'lgan bu ishlar tarix o'qitish metodlari sistemasini va metodik usullarini ham ilmiy asosda ishlab chiqish va amalda ulardan muvaffaqiyatlari foydalish imkoniyatini beradi. O'qitish metodlarini ilmiy asosda klassifikatsiyalash masalasi pedagogika fanida o'qitishning turli bosqichlarida turlicha hal qilib kelindi. O'qitish metodlari klassifikatsiyasiga ba'zan analiz va sintez, deduktsiya va induktsiya kabi mantiqiy operatsiyalar asos qilib olinib, o'qitish metodlari induktiv, analitik va boshqa mantiqiy usullar sifatida xarakterlanadi. O'qitish metodiga bu xil



qarash, A.Vagin ta'kidlaganidek, tarix o'qitish metodikasida tan olinmadı. O'rta ta'limga o'rta maxsus ta'limga tizimida tarix o'qitish tajribasi shuni isbotladiki, yuqoridagi mantiqiy operatsiyalar o'qitish va o'rganishning barcha bosqichlarida turli xarakterdagi xilma-xil didaktik va metodik vazifalarni hal qilishda ishtirok etsada, mustaqil o'qitish metodlari bo'lib xizmat qila olmaydi. Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: «Tarix o'qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy operatsiyalardan tashkil topadi». O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarining bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsija qilinadi. Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir. 60-yillarda tarix o'qitish metodlari va ularni klassifikatsiyalash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev «Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'limga tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi»— deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsija qiladi: 1) tarixiy faktlarni o'rganish metodlari; 2) xronologiyani o'rganish metodlari; 3) mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari; 4) asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari; 5) sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari; 6) tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari. Ma'lumki, tarix o'qitish — o'qitish va o'rganishni tashkil etish jarayonidan iborat. Metodist A.Strajevning klassifikatsiyasidan ham ko'rinib turibdiki, u faqat o'qituvchining o'quvchilarini o'qitishini ko'zda tutadi, o'quvchilarining o'rganishini tashkil etish va ularning o'rganishiga o'qituvchining rahbarlik qilishini e'tiborga olmaydi. Ko'zga ko'ringan metodist V.G.Kartsev bu masalada boshqacha yo'l tutadi. U metodlar sistemasiga o'quv harakteriga ega bo'lgan belgilar («Bayon qilish metodi», «so'rash metodi») va umumiy didaktiv vazifalar («materialni o'rganish metodi», «mustahkamlash metodi», «bilimni tekshirish metodi» va boshqalar) ni emas, balki o'quvchilarining tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi. Metodlar haqidagi nazariyaning metodologii asosini, ya'ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish tashkil etadi. Binobarin,— deb hisoblaydi V.G.Kartsev,— o'quvchilarda tarixiy tasavvur va tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari haqidagi masala metodikaning markaziy masalasi bo'lishi keraq Shu asosda u, o'quvchilarda tarixiy tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning 4 guruhi borligini aytadi: 1) tarixiy tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirkii metodlari; 2) umumiy tushunchalarni shakllantirish metodlari; 3) vaqt va fazoda tarixiy rivojlanish dialektikasini ochib berish metodlari; 4) tarixni zamonaviy voqealar bilan borlash metodlari; 5) tarixiy bilimlarning hayot va praktikada qo'llanilishi. 60-yillar pedagogikasida o'rganilayotgan fanni bilish manbalari (o'qituvchining jonli so'zi, ko'rsatmalilik va tekstlar) ni o'qitish metodlariga asos qilib olishga katta o'rinni berildi. O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha klassifikatsiyalash masalasi Leningrad olimlarining 1966 yilda nashr qilingan asarlarida aniq ta'riflab berildi. 50-yillarning oxirlariga kelib tarix o'qitish metodikasida ham o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga o'quvchilarining bilish manbalari asos o'qilib olina boshladi. Metodist P.S.Leybengrub ta'limga manbalari, ya'ni bilish manbalari asosida o'rta ta'limga va o'rta maxsus ta'limga tizimida da tarix o'qitishning quyidagi metodlarini ko'rsatadi. 1) hikoya metodi va o'rta ta'limga va o'rta maxsus ta'limga tizimida lektsiyasi; 2) suhabat metodi; 3) ko'rsatmali metod; 4) darslik bilan ishlash metodi; 5) tarixiy hujjatlar bilan ishlash metodi; 6) badiiy adabiyotlardan foydalanish metodi. P.S.Leybengrub nimagadir, og'zaki bayon qilish metodlarining hammasini hikoya va lektsiyadan iborat qilib qo'yadi. A.Vagin o'zining tarix o'qitish metodikasiga bag'ishlangan kitobida ana shu kamchilikni to'ldiradi. A.Vagin tarix o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga bilim olish manbalari bilan birga, bilim olish usulini ham asos qilib olgan. U o'qitish metodlarini quyidagi uch gruppaga bo'ladi: 1) jonli so'z: hikoya, tavsiflash, harakteristika, problemali bayon; 2) ko'rsatmali metodlar: rasmlar va boshqa ko'rsatmali qurollar, doskaga chiziladigan grafik yozuvlar, texnika vositalari va boshqalar; 3) tekstlar bilan ishlash metodlari. A.Vagin o'qitish metodlari klassifikatsiyasiga bilim manbalari va bilish usullarini asos qilib olish bilan birga, bilish manbalari didaktik vazifalarga muvofiq o'qitish protsessining asosiy bosqichlarida qay tarifa konkret amalga oshirilishini jadval shaklida beradi. Bu jadval har bir darsda o'tiladigan materialning mazmuniga qarab o'qitishning turli xil metod va usullaridan foydalanish zarurligini aniq ko'rsatadi. Keyingi yillardagi o'rta ta'limga va o'rta maxsus ta'limga tizimida da tarix o'qitish tajribasi A. Vagin tavsija etgan o'qitish metodlarining juda real ekanligini ko'rsatdi. Prof. P.V.Gora o'zining «Ta'limga metodlari va metodik usullari sistemasiga doir masala» nomli maqolasida pedagogikasi nazariyasi va praktikasidasida erishilgan yutuqlarga



suyanib, o'qituvchining o'qitishi va o'quvchilarning o'rganishi (bilish faoliyati) bilan o'zaro organik bog'langan metod va metodik usullarni tavsiya qiladi. O'qitish metodlarining shu taxlilda klassifikatsiya qilinishi o'qitishuvchilarni puxta bilim va zarur malakalar bilan qurollantirish imkoniyatini beradi. Shuningdeq o'qituvchini o'quv materialining mazmuni, o'quvchilarning bilimi, malakalari va qobiliyatlarini ham hisobga olish va rahbarlik qilishiga yordam beradi. P.V.Gora o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida da tarix o'qitish tajribasiga asoslanib, tarix o'qitish metodlarini klassifikatsiya qilishda masalaga faqat didaktik nuqtai nazardan qaramasdan, tarixiy-metodik nazardan ham yondashish, o'quv tarixiy materialning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini hamda uning mazmunidagi o'ziga xos xususiyatlarni ham yetarli ravishda e'tiborga olish zarur ekanligini ko'rsatadi. P.V.Gora xuddi shu printsipga asoslanadi, unda o'qitishning metod va usullarini tanlashda o'quv materialining mazmunini, uni o'rganishning maqsadini asos qilib olish, masalaga tarixiy-metodik mezon bilan yondoshish va hal etish zarurligi ko'rsatiladi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. J.G` Yo'idoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi. 2004.
3. www.google.com



TARIX DARSLARIDA PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*O'razaliyeva Munavvar Suyunbayevna
Sirdaryo viloyati Xovos tumani 1-sonli
matematika va fizika fanlariga ixtisoslashtirilgan
umumiy o'rta ta'lif maktabi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada tarix fanini qiziqarli va mazmunli o'tishda, pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarni oshirish mavzusi yoritib o'tilgan

Kalit so'zlar: ta'lif, tarix, pedagogik texnologiya, Aqliy hujum, o'quv keyslari, xona, o'quvchilar.

Zamonaviy ta'lifni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladiki, buning oqibatida har bir o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o'zi egallagan o'rinni barqarorlashtiradi, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. Pedagogik texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko'nikma va malakalarga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki o'quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalardan tarix darslarida samarali foydalanish, o'quvchilarni Vatanimiz tarixiga oid ma'lumotlarni uzoq vaqt eslab qolishga va darsga bo'lgan qiziqishini orttirishga yordam beradi. Quyida tarix darslarida foydalanish mumkin bo'lgan texnologiyalarni keltirib o'tamiz:

Aqliy hujum usuli. Aqliy hujum – g'oyalarni generasiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar. U ishtirokchilarni o'z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag'batlantiradi.

“Aqliy hujum”ning vazifasi kichik guruhi yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdan iborat. Bu usul muammoni hal qilayotgan talabalarning ko'proq aqlbovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalalar qancha ko'p bo'lsa, shunchalik yaxshi hisoblanadi. Ularning hech bo'limganda bittasi ayni maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Bu usul bilan 6-sinf darsligidagi “Qadimgi tarixni o'rganish” mavzusidan foydalanish tavsiya etiladi.

O'quv keyslari. O'quv muammoli vaziyat (o'quv keysi) tashkil etishning maqsadi guruh xonasida aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlar va tavakallikni hisobga olgan holda muqobil yechimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iboratdir.

Keys usulini samarali qo'llash o'quv guruhi muammoli vaziyatni muhokama qilish imkoniyatini berish orqali talabalarning anglashini faollashtiradi, o'z bilimi va g'oyasini mujassamlashtirish, muhokama jarayoni va mazmunini kuzatish uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki, o'qitishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilar juda ham faol bo'lmasdan o'z fikrlarini ochiq bayon etishga qodir bo'lmaydi. Bunday to'siq o'quvchi uchun qarashlari va fikrlarini guruh yoki o'qituvchi tomonidan tanqidga uchrashishi mumkinligidan xavfsiragan holda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'pincha shunday hollar bo'ladiki, o'qituvchi vaqtning tig'izligi tufayli o'quvchilar bilan suhbat-muloqot yoki to'liq savol-javob o'tkaza olmaydi. Ana shunday hollarda zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan biri bo'lgan keys usulidan foydalanish mumkin.

– yechilishi zarur bo'lgan muammoni qamrab olgan haqiqiy vaziyat ifodasi;
– o'quvchilar tomonidan muhokama qilinishi mumkin bo'lgan va odatda, qaror qabul qiluvchi menejer nuqtai nazaridan bayon etilgan vaziyat;

Bu usul bilan 6-sinf darsligidagi “Eneolit va bronza davri” mavzusidan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika o'qitish metodikasi
2. 6-sinf tarix darsligi 2017-yil



ДЕМОКРАТИК ЖАМИЯТДА ЁШЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИГИ МАСАЛАЛАРИ

*Алижонова Шохиста Алижоновна,
ўқитувчи Фарғона юридик техникуми*

Аннотация: Ушбу мақолада жамият ҳаётида, ёшларнинг ижтимоий -сиёсий ишлардаги иштироки масалалари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: ёшлар, ижтимоий-сиёсий фаоллик, хуқуқ.

Ўзбекистонда ёшлар аҳолининг асосий қисмини ташкил этади. Ёшларга мустақилликка эришган илк кунларданоқ алоҳида аҳамият берилган. Хусусан, 1991 йил 20 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.Каримов, 2016 йил 14 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан «Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида» қонун қабул қилинди. Бу қонун Ўзбекистон Республикаси давлат фаолиятининг устувор ўйналиши бўлиб, унинг мақсади ёшларнинг ижтимоий шаклланиши ва камол топиши, ижодий иқтидори жамият манбаатлари йўлида имкони борича тўла-тўқис рўёбга чиқиши учун ижтимоий-иқтисодий, хуқуқий, ташкилий жиҳатдан шарт-шароит яратиш ҳамда уларни кафолатлашдан иборатдир. Зоро, ёшларнинг ижтимоий-сиёсий жараёнлардаги фаоллиги уларнинг фуқаролик позициясини мустаҳкамлашда муҳим ўрин тутади.

Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсати қўйидаги қоидаларга асосланади:

- миллати, ирқи, тили, дини, ижтимоий мавқеи, жинси, маълумоти ва сиёсий эътиқодидан қатъи назар, ёшлар тўғрисида ғамхўрлик қилиш;
- ёшларни хуқуқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳимоя қилиш;
- хуқуқ ва бурчларнинг, эркинлик ва фуқаролик масъулиягининг бирлиги;
- жамиятни ривожлантиришга, айниқса республика ёшлари ҳаётига оид сиёsat ва дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда ёшларнинг бевосита иштирок этиши.

Жамиятни ислоҳ қилишнинг ҳозирги шароитида ёшларга ўз билимларини мустақил эгаллай олиш, ўз ҳаётини, жамият ҳаётини баҳолашни ва йўлга қўйишни, кўлами тобора кенгайиб бораётган ва ўзгарувчан ахборот оламида мўлжал ола билишни, ўз онгига профессионализм ва билимдонликни мустаҳкамлашни, ўз тафаккури асосларини шакллантиришни ўргатиш муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, бунда ўқув муассасаларида педагог кадрларнинг аҳамияти алоҳида ўрин тутади. Ёшларнинг хуқуқий билимларини оширишда давлат ва нодавлат ташкилотлари, фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари самарали ҳамкорлик қилиб келмоқдалар.

Ёшларни ҳар томонланма қўллаб-қувватлаш, уларни истеъдодларини юзага чиқариш мақсадида давлат ва нодавлат ташкилотлари томонидан бир қатор лойиҳалар амалга оширилмоқда. Масалан, ҳар йили таълим муассасаларида «Хуқуқ билимдони» танлови ўтказилади. Бу каби танловлар ёшларнинг хуқуқий-сиёсий билимларини ошириш, уларда конституция хақида тўлиқ ва ишончли ахборот олиш ва соғлом ахборот муҳитини ривожлантиришга шубҳасиз туртки бўлади. Шунингдек, жамият асоси бўлмиш оила институтини янада мустаҳкамлаш, оиласаларни, айниқса, ёш оиласаларнинг хуқуқий ва ижтимоий-иқтисодий манбаатларини ҳимоя қилиш ҳамда қўллаб-қувватлашни кучайтириш борасида олиб борилаётган барча ишларнинг сифат жиҳатидан янги босқичга кўтарилиганинг, жисмонан соғлом, маънавий етук баркамол авлодни тарбиялашда, ёшларга эътибор ва ғамхўрликнинг кучайтирилиганинг, уларни хуқуқий ва ижтимоий ҳимоя қилишни таъминлашда ижтимоий ҳамкорлик муҳим аҳамиятга эга эканлигига алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Ушбу жиҳатлар ўз навбатида ёшларни ватанпарварлик руҳида камол топишларига хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т., 2019.
2. Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 2016 йил 14-сентябр.



ХУДОЁРХОН ДАВРИНИНГ ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ
(Ансоб ус-салотин таворих ул-хавоқин асари мисолида)

*Йўлдашали Исаков Валиевич
ИИВ Фарғона академик лицейи
тарих фани ўқитувчisi
+998 90 532 76 23*

Аннотация: Мақолада Худоёрхон даври ва фаолияти Ансоб ус-салотин таворих ул-хавоқин асари мисолида ўрганилган. Манбаада келтирилган маълумотлар юзасидан фикр мулоҳазалар баён қилинган.

Таянч сўз ва иборалар: Тарихнавислик, ёзма манбалар, хонлик, сиёсий вазият, тарихийлик, қирғин, Тошкент беклиги, Чор Россияси истилоси.

Кўқон хонлиги тарихини ўрганишда манбаларни шартли равишда икки гурухга ажратиш мумкин. Жумладан, XIX асрда Кўқон тарихнавислик мактаби асосида яратилган кўлёзма асарлар ва XX асрда мана шу кўлёзма манбалар асосида яратилган илмий адабиётлардир. Ёзув шакли, муаллиф нуқтаи назари ва даврий шароитга қараб бошқа гурухларга ҳам ажратиш мумкин.

Хар қандай тарихий тадқиқот аввало ёзма манбаларга асосланса мақсадга муофиқ ҳисобланади. Шундай экан Кўқон хонлиги тарихини ўрганишда ҳам қуида тадқиқ қилинадиган асар ҳам муҳим ҳисобланади. Қулайлик томони шундаги мустақиллик йилларида бу асар тарих фани фидоийлари томонидан қайта тикланган, таржима қилинган ва “Кўқон хонлиги тарихи” номи билан нашр этилган.

Кўқон хонлиги тарихига оид махаллий тарихчилар асарлари талайгинани ташкил этади. Улар орқали асосан хонликдаги сиёсий вазият, харбий харакатлар, шу билан бир қаторда ташқи сиёсий аълоқаларини билиб олишимиз мумкин. Бундан ташқари хукмдорларнинг шахсий фазилатларига ҳам кенг ўрин ажиратилган. Шунинг учун маскур асарлар Худоёрхоннинг сиёсий фаолиятини ўрганиб кўришимизда катта ёрдам беради.

Жумладан, Кўқонда яшаб ижод қилган тарихчи Мирзоолим Мушрифнинг “Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин” асарини мисол келтириш мумкин. Муаллифнинг тўғифиган ва ўлган йиллари аниқ эмас. “Ансоб ус-салотин...” да 1875 йил ва ундан кейинги воқеалар баён қилинганлиги ва муаллифнинг Маллахон ва Худоёрхон саройида хизмат қилганлигини инобатга олиб, тахминан у XIX асрнинг 20-80-йилларида яшаган ва ўз асарини умрининг охирларида ёзиб томомлаган, деб ҳисоблаш мумкин.

Мазкур асарда муаллиф XIX асрнинг 2-ярмида Кўқон хонлигидаги, асосан Худоёрхон давридаги воқеаларни баён қиласди. Мирзоолим Мушриф шу даврда яшаганини ҳисобга олсақ муаллиф баён этган воқеалар Худоёрхон даври тарихи хақидаги муҳим ва ишонарли манба ҳисобланади. Унда Норбутабийдан то Худоёрхонгача бўлган Кўқон хонлари тарихи ҳикоя қилингач, Россия истилоси ва унинг оғир мусибатлари баёнига ўтади. “Ансоб ус-салотин...” – тарихий-бадиий асар. Унда, аввало, XIX асрда Кўқон хонлигига юз берган сиёсий воқеалар аниқ акс эттирилган.

Асар муқаддимасида муаллиф Фарғона мамлакати руслар тасарруфига олинганлигини ёзади. Худоёрхон тақдирига эса қуидагича тухталади: “Жаноби Сайид Худоёрхон саодат нишоннинг ахли авлоди бирлан асир айлаб Тошканд вилоятига юборди ва ахли авлодларини Тошканд вилоятида сақлаб, Худоёрхонни ўн бир одам бирлан вилояти Ўрунбурунға юбориб, анда сақлади.”

Шу билан бирга муаллиф мазкур воқеа туфайли мамлакатда ислом динига путур етканини ҳам келтириб ўтган.

Ўз асарига тухталар экан муаллиф “...Шералихон марҳум замонидин Худоёрхоннинг охир давлатигача ўткан ғарип ва ажиб воқеаларни содда иборат бирла қайди тарихга олиб, баён айлаб “Асоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин” исм берилди” деб ёзади.

Шундан сўнг муаллиф асарда ўзбек наسابининг пайдо бўлиши, Олтун бешик воқеаси, Абдукаримбек, Олимхон, Муродхон тарихи ва хукумронлиги хақида баён қиласди. Мусулмонқулнинг хукуматни ўз қўлига олганлигини ҳам ёзиб колдирилган. Асарда Худоёрхоннинг уч маротаба ҳокимиятга келиши ва шунча маротаба ҳокимиятдан мосуво



бўлганлиги ҳам кенг ёритилган.

Хусусан, Худоёрхоннинг хокимиятга биринчи маротаба келиши хақида тўхталар экан воқеаларни хонликда рўй берган қипчоқлар қирғини ва Мусулмонқул билан бўлган ҳарбий ҳаракатларни хикоя қилишдан бошлайди. Бу билан Худоёрхоннинг биринчи хукумронлик даври амалда Мусулмонқул ва қипчоқлар қирғинидан кейин бошланган деб айтишга асос бўлади. Расман эса Худоёрхон Мусулмонқул таъсири билан 1845 йилда тахтга ўтиргани маълум.

Асарда қипчоқлар қирғинини “кон дарё бўлиб оқти, гўё қиёмат бўлди” деб тарифлайди муаллиф. Хон кўшинларига қипчоқлар Билқиллама тарафдан отланиб, уч бўлинниб ҳужум қиласидилар. Мусулмонқул бошлиқ қипчоқлар кўшини мағлубиятга учратилгач хон давлатини ўзи бошқаришга мусассар бўлади.

Аркони давлат маслахати билан жаноби хон – деб ёзади муаллиф, - ўз акаси Маллабекка Тошкандни беради. Маллабек Тошканд ва Даشتি қипчоқ ҳукмдорига айланади. Шу ерда уни кўр Қўлдош ва Ниёзалибий хонликка қарши муҳолифатга ундейди. Уларга Ўратепа ҳокими Рустамбек ҳам қўшилиб фитна бошлайди. Ўратепага хон фармони билан Мухаммад Қосим мингбоши лашкар тортиб қамал қиласиди.

Акасининг муҳолифатини тушуниб еткан Худоёрхон Ҳўжандга келади. Маллабек хон хузурига музокара учун кўр Қўлдошни юборади. Лекин уни хон қатл эттиради. Худоёрхоннинг Тошкентга юриш қилиши Маллахонни Чиноз дарёсидан ўтиб, Бухорога қочишиги сабаб бўлган. Хон Тошкентга Сўфибекни ҳоким қилиб, Қўқонга қайтади.

Муаллиф хонликда мазкур воқеалар содир бўлаётган вақтда руслар Оқмасжидни босиб олганликларини ҳам маълум қилган.

Воқелардан хабар топган хон Шодмонхўжа доддоҳ, Мухаммадкарим шайх ва Саримсок доддоҳ бошчилигига Оқмасжид устига қўшин юборади. Лекин улар рус қўшинларига тўқнаша олмай ўз жонларини асраб ортга қайтадилар. Худоёрхон уларнинг бу ишлари учун жазолаган. Шундан сўнг Оқмасжидга Мухаммад Қосим мингбоши бошчилигига қўшин юборилади. Руслар билан бўлган биринчи тўқнашувдаёқ хонлик аскарлари чекинишга мажбур бўлган. Бир неча уламолар Мухаммад Қосим мингбоши устидан тухмат қилиб, унинг ўрнига Мухаммад Ниёзбекни мингбоши қиласидилар.

Оқмасжид руслар қўлига ўтади. Худоёрхон эса айш-ишратга берилиб, шикор қилмоқقا ружу қўяди. Ўғли Насриддинбекнинг тўйини қиши аввалидан то баҳоргача нишонлайди. Халойиққа ош-нон, эхсон-инъом бериб томошалар кўрсатади. Андижон ҳокими Сўфибек тўй қилиб хонни таклиф этади. Шу боисдан Худоёрхон бир муддат катта туй тантана билан Андижонда бўлиб қайтади.

Муаллиф асарда “Хон Валихон тўра Хожикалонга муҳлис эдилар” - деб ёзади. Шу сабабли уни шикорда ҳамроҳ қилур эдилар. Шундай ҳамроҳликдаги бир овда хон Валихон тўрага ўз акасининг мусофириликда ғурбат чекиши, ўзининг эса фароғатда юриши тўғри эмаслигини, акаси Маллахонни қайтариш масаласида мастлаҳатлашади. Шунда Валихон тўра “Бу масалада хон акаларининг феълидан хабардордирлар. Икки қўчкорни боши бир қозонда қайнамас” – деб жавоб беради. Шунга қарамасдан Валихон тўра вафот этганидан кейин Худоёрхон акаси Маллахонни саройга қайтаради.

Бу хоннинг давлати хавфсизлигига нисбатан катта хатоси бўлган деб айтиш мумкин. Чунки Маллахоннинг Қўқонга қайтиши янги фитналарнинг бошланишига сабаб бўлган. Бу орада Ўратепа ҳокими Рустамбек хонликка қарши ҳаракат бошлайди. Бундан фойдаланган Бухоро амири Насрулло Ўратепага қўшин тортиб келади ва Рустамбекни қатл эттиради. Ҳарбий ҳаракатларини Ҳўжандга қаратади.

Шундай оғир вазиятда Маллахоннинг ўз укасига қарши ҳарбий ҳаракатлари Худоёрхонни биринчи маротаба тахтдан мосуво бўлишига сабаб бўлган.

Манбалар ва адабиётлар:

1. Мирзоолим Мушриф Ансоб ус-салотин таворих ул-хавоқин. Нашрга тайёрловчилар: А.Матғозиев, М.Усмонова. - Т.: F.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
2. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. Т.: Шарқ, 1995
3. Юсупов Ш. Худоёрхон // Жаннатмакон. 2009. феврал
4. Бобобеков Ҳ. Худоёрхон // Турон тарихи. Т. 2005. 3-сон



MAKTABLARDA TARIX FANLARINI TASHKILLASH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING RIVOJLANISHI VA KAMOL TOPISHI

*G'aniyev Mo'minjon,
Navoiy viloyat Qiziltepa tumani
27-umumta'lum maktab
Tarix fani o'qituvchisi*

Tarix kursini o'qitishda o'quvchilarning fikrlashga asoslangan malaka va ko'nikmalarini hosil qila borish vaziflari – bu tarixiy bilimlarni mustaqil sur'atda topib, bir tizimga solib, ularni amalda tadbiq eta bilishga o'rgatish, pirovardida esa o'quvchilarni o'tmishdagi hamda hozirgi zamondagi ijtimoiy hodisalarga nisbatan ilmiy materialistik nuqtai nazardan yondashishga o'rganish demakdir. Nutqni o'stira borish ham o'quvchilarning va ularda aqliy mehnat malakalari hamda ko'nikmalarini hosil qila borish bilan bog'langandir. Biz maktabda o'qitiladigan tarixning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarix kursini o'qitish davomida hosil qilina boradigan malakalar guruhlarni shartli ravishda ajratib ko'satamiz.

1. Tarixiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish hamda tarixiy voqealar va hodisalardagi eng asosiy va muhim narsani, ularning muhim belgilari va bog'lanishlarini ajratib chiqish, tarixiy tushunchalarga ta'riflar berih malakalari.

2. Tarixiy bilim beruvchi manba mazmunini mantiqiy jihatdan bir necha qismga ajratish, umumiyligi mantiqiy sxemasni bir turdag'i tarixiy hodisalar hamda voqealarni tahlil qilishda deduktiv suratda tadbiq etish malakalari.

3. Tarixiy dalillar va jarayonlarni o'z doirasida qarab chiqish hamda vaqt jihatdan ular o'rtaqidagi nisbatni aniqlash xronologik va sinxronistik jadvallar tuzish malakalari.

4. Tarixiy hodisalarning joyini aniqlash, tarixiy xaritani «tilga kirgizish», undagi izohlar va shartli belgilardan xatosiz foydalanish, yozuvlarning xaritani tarixiy mazmunda to'ldirish malakalari.

5. Tarixiy voqealar, hodisalarni taqqoslash, ularning umumiyligi xususiyatlarini topish malakalari;

6. Tarixiy dalillarni tahlil qilish va taqqoslash assosida indektiv va deduktiv xulosalar chiqarish usulidan foydalangan holda yakunlar yasash, yakunlarni berilgan baholarini asoslab berish, taxiriylarning umumiyligi xulosalarga tayangan holda to'g'ri isbotlay olish malakalari;

7. Tarixiy materiallarni og'zaki yoki yozma tarzda bayon eta bilish, izchil tarzda obrazli qilib bayon etishning turlaridan hikoya qilish, tasvirlash, usullaridan foydalana bilish, savollarga qisqa atroflicha javob berish, hamda o'z o'rtoqlariga savollar berish, ularning javoblarni tanqidiy nuqtai nazardan baho berish malakalari;

8. Axborotlar, dokladlar, referatlar, siyosiy axborotlar tayyorlash, hamda ularni o'tkazish, kichikroq hajmdagi ilmiy – ommabop materiallarni tayyorlash malakalari;

9. Tarixiy matn mazmunini yoki o'qituvchi hikoyasini rejalarini, tarixiy voqealarni hodisani tahlil qilish rejasini, taqqoslash rejasini tuzish, reja, ishlanma, tezislar tuzish, o'qituvchi tushuntirib bergen asosiy qoidalarni qisqacha yozib borish, kitoblardan ayrim joylarini yozib olish, ma'lumotlar beruvchi tarixiy adabiyotlardan foydalana bilish malakalari.

O'quvchilar tafakkuri va nutqining o'sa borishi, malaka va ko'nikmalarining hosil bo'la borishi, bilimlarni egallash va ularni tadbiq etish, ular bilan ish olib borish jarayonida yuz beradi. Bilimlar bilan malakalar o'rtaqida o'zaro bog'lanish va bir – biriga bog'liqlik bor. Kishi aqliy faoliyatning onglilik xarakteri unda hosil bo'lgan bilimlar tizimi bilan belgilanadi. Bilim hamma vaqt tegishli malaka va ko'nikmalar tizimiga tayanadi. O'z navbatida yangi malaka va ko'nikmalar vujudga kelishi uchun zamin hisoblanadi. O'qitish jarayonining har qaysi bosqichida bilimlar, malaka va ko'nikmalar o'rtaqidagi o'zaro nisbat o'quvchining aqliy jihatdan yetuklik darajasini ham belgilaydi. O'quvchilarning malaka va ko'nikmalarini hosil qila borishga qaratilgan ishning muvaffaqiyatli chiqishi ko'pgina shart – sharoitlarga bog'liq. Tarix o'qituvchisi birinchi navbatda u yoki bu sinda bundan ilgari hosil qilingan bilim va malakalarning qanday doiraga tayana olish mumkinligini, ayrim o'quvchilarda qanday malaka yaxshi hosil bo'limganligi yoki yo'qligini aniqlab olishi zarur.

Ana shu asosda o'quvchilarni turli guruhlarga hamda ayrim o'quvchilarga nisbatan bundan keyin differensial yo'sinda yondashishga o'tiladi. O'qituvchi ish jarayonida o'quvchilarning bilim va malakalar hosil qilishda qanday darajada ekanliklarini doim tekshirib va hisobga olib boradi. Hosil qilingan malaka o'qituvchilarning o'zlariga tanish turdag'i yangi sharoitlar, yangi o'quv



materiali asosida mustaqil suratda bajara olish, ya’ni o‘quv vazifasini bajarishda tashabbus ko‘rsatib yangi sharoitlarda tadbiq eta olish vazifalarini hal etishning yangi usullarini topa bilish qobiliyati demakdir. Aqliy faoliyatning muayyan usullarini egallab olish malakalar hosil qilishning asosini tashkil etadi. Malaka egallab tadbiq etishda qanchalik mustaqil ish tutishi hamda usulda tadbiq etiladigan hodisalar doirasingin qanchalik kengligi bilan belgilanadi. Aqliy faoliyatning muayyan usullarini egallab olish malakalar hosil qilishning asosini tashkil etadi. O‘quvchilar bironta malakani, masalan, tarixiy hodisalarni taqqoslash, isbotlash berish malakasini hosil qilmoq uchun o‘qituvchiga o‘sha mantiqiy vazifaning maqsad va mohiyatini, hamda uni bajarish usullarini tushuntirib, ularni aniq tarixiy materialga tadbiq etgan holda ko‘rsatib beradi. Ko‘rsatib berish paytida mazmuni uncha murakkab bo‘lmagan material: taqqoslash uchun – moddiy madaniyatga doir ikki narsa, xulosa chiqarish uchun – darslikning bir necha rejasidan iborat matni va shu singari tanlangani ma’qul. Shundan keyin o‘qituvchilar qanday ishlash usullarini ko‘rsatib berilgan materialga o‘xshash tarixiy materiallar va mantiqiy materiallar bilan ish olib borishni o‘qituvchi rahbarligida endi o‘zлari bajaradilar. O‘qituvchilar bu usullarni qadam – ba qadam o‘zлari bajaradigan bo‘ladilar. Dastlab bu ishni yaxshi o‘quvchiga topshirish yoki shu ishni izchilsuratda pog’onama – pog’ona bajarishga butun sinfni jalb etib, uni evristik usulda o‘tkazish mumkin. Keyinchalik o‘qituvchi o‘quvchilarni bunday usullarni shunga o‘xshash materilga tadbiq etgan holda, ularni yagona sharoitlarda qo‘llay olishga ham o‘rgatadi.

Foydalaniman adabiyotar ro‘yhati:

1. www.http.ziyonetlibrary.com
2. www.http.uzedu.uz



TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVURLAR VA TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

Nazarova Aziza Akmalovna,
Navoiy viloyat Qiziltepa tumani
15-umumta'lim maktab
Tarix fani o'qituvchisi

Tarix o'qitish tarixiy dalillar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan, o'quvchilarda hodisalar, tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil bo'ladi. Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko'pchilik hollarda bir – biriga o'xshab ketadi. Tarix o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxshi manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan har bir tarixiy dalil, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo'lishi lozim. Obrazlilik o'quvchilarni tarixdan oladigan bilimlarini ilmiy puxta bo'lishini zarur sharoitlaridan biri tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish tarixga qiziqish uygotish hamda tarixiy dalillarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir.

Tarixiy dalillarni tahlil qilishga bir namuna keltiramiz: Maktablarda tarix kurslarida o'quvchilar ko'z oldida eng qadimgi zamонлардан tortib to hozirgi kunlargacha bo'lgan jamiyat taraqqiyoti izchillik bilan ochib beriladi. O'quvchilar aniq tarixiy dalil va hodisalarni tekshirish va umumlashtirish asosida rivojlanishning qaror topishi to'g'ri sidagi ilmiy tushuncha bilan qurollanadilar. «Jahon tarixi»ning qadimgi davrlarini va «O'zbekiston tarixi»ning qadimgi davrlarini o'qitish jarayonida ibtidoiy odamlar mehnatining takomillashib borishi, mehnat ular hayotini qanday o'zgarishlarga olib kelganligini o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Taraqqiyotning tarixiy jarayoni tushuntirilar ekan, ular tasavvurida ibtidoiy odamlar hayoti to'g'risida ko'rsatmali qurolsiz tushuncha hosil bo'lmaydi. Bu borada O'zbekiston tarixi muzeyi yoki boshqa shahar va tuman o'lkashunoslik muzeylariga ekskursiya uyuştirish, o'quvchilarning haqiqatni aniq va to'liq to'g'ri fikrlashlarini ta'minlaydi.

Ekskursovod Teshiktosh g'oridan, Oqtosh, Xo'jakent, Quyi Bo'zsuв

manzilgohlaridan topilgan qadimgi tosh davriga oid tosh qurollari bilan tanishtiradi. Bu vaqtida yashagan odamlar ovchilik, meva yig'ish, yemishbob ildizlar topish bilan xayot kechirganlarini so'zlab «ov», «termachilik» rasmlarini ko'rsatadi. Shundan so'ng o'quvchilar diqqati Teshiktosh va Oqtosh g'orlarining kesma suratlariga jalb qilinadi, so'ngra eramizdan avvalgi XII – VII ming yillarga oid o'rta asr materiallariga e'tibor qaratiladi. Bu paytda odam o'q – yoy yasashni bilib, birinchi uy hayvoni – itlarni o'ziga orgatadi. Muzeyda akademik Ya.G'.G'ulomov rahbarligida Buxoro viloyati hududida qazish ishlari olib borilishi natijasida Darbozakir tolit manzilgohida topilgan ko'p miqdordagi mehnat qurollari qo'yilgan. Qamish va yog'ochdan qurilgan bu manzilgoh 30-35 kishiga panoh bo'lgan. Shuningdek akademiklar: S.T.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov ekspeditsiyalari qazish ishlari olib borilgan Jonbosqal'a manzilgohining chayla maketi berilgan. Arxeologlarning ma'lumotiga ko'ra bu chaylada 120 – 150 kishidan iborat jamoa yashagan.

O'quvchilarga chaylaning maketi ko'rsatilib, uning o'rtasida muqaddas hisoblangan gulxan yonib to'rganini atrofida ovqat pishiriladigan o'choqlar joylashganini so'zlab qazishmadan chiqqan parranda, baliq, hayvon suyaklari qoldiqlari, loydan yasalgan idish parchalari ko'rsatiladi. Keyingi yangi davr – Bronza asri. Insoniyat tarixida yangi davr ochilganligining, ya'ni patriarxat (otalik urug'i) davri hamda xo'jalikda, oilada, ijtimoiy munosabatlarda erkaklar hukmronligining o'rnatilganini ko'rsatuvchi materiallar, odamlarning mehnat qurollari, tosh boltalari, o'g'ir dastalari, bronza chaqmoqlari bilan tanishtiradilar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'quvchilar tarix muzeyida o'z ko'zlari bilan ko'rgan qadimgi odamlar hayoti va ularning ish qurollarini bir umrga eslarida saqlab qoladilar. Muzeydan qaytgach o'qituvchi, o'quvchilarga «mehnat qurollarining takomillashuvida inson hayotining o'zgarib borishi» yoki



«Mehnat insonni yaratadi», «Kishilar o‘rtasida tengsizlik qanday vujudga keldi?», «Odamlar hayotining takomillashuvida tabiatning o‘rni» kabi mavzularda referat yozib kelishlarini topshiradi. Tarixiy tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini o‘quvchilar faol suratda idrok etishga qaratilgan usullardan foydalaniladi. O‘qituvchi hikoyasining mazmunan ko‘rgazmali va obrazli bo‘lishi darslik matnidagi tarixiy hujjatlardagi voqeа va tasviriy rasmlar, badiiy adabiyot asarlari o‘quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarning tarixga qiziqishining ortishi o‘quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi bayonining jonli va emosonal bo‘lishining o‘zi kifoya qilmaydi, O‘qituvchi o‘quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim. O‘qituvchi ko‘rgazmali qurolni shunday ko‘rsatib, uning mazmunini tushuntirib, hujjatlarni o‘qib qo‘ya qolmay, balki hikoyadagi eng muhim joylarini alohida ohang bilan ta’kidlashi, ko‘rgazmali qurollarni, matnlarni o‘quvchilarning faol ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi, o‘rganilgan hujjatlardagi, u yoki bu hujjatlariga ular diqqatini jalb qilishi lozim. Tarix bo‘yicha har bir sinf dasturi oxirida asosiy tushunchalar mazmuni belgilab beriladi. Bu tushunchalar kursning ilmiy mazmunini, g’oyaviy – nazariy asoslarini aniqlash va tarixiy materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish bo‘yicha ish usullarini belgilab olishga yordam beradi. Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda, o‘quvchilarning tarixiy dalillarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilardan ajrata bilish, guruhlarga bo‘la olishni, tarixiy voqeа va hodisalar o‘rtasidagi bog’lanish va munosabatlarni chuqur anglab tushunib olish ko‘zda tutadi.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000